



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

HOZIRGI O'ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING TARIXI VA BUGUNGI KUN TARAQQIYOTI

Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD),
professor vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lish tarixi, ularning shakllanish omillari va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Til jonli va doimiy o'zgaruvchan tizim sifatida jamiyatdagi texnologik, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga moslashish jarayonida yangi leksik birliklar bilan boyib boradi.

Maqolada neologizmlarning ichki va tashqi manbalar orqali yuzaga kelish yo'llari, o'zlashma so'zlardan farqli jihatlari, shuningdek, globallashuv, raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining bu jarayondagi ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishi asosan affiksatsiya, kompozitsiya va semantik ko'chish kabi ichki imkoniyatlar hamda ingliz, rus va turk tillaridan o'zlashmalar orqali amalga oshmoqda.

Kalit so'zlar: neologizm, o'zlashma so'z, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik neologizm, globallashuv, leksik boyish.

Abstract: This article analyzes the history of the emergence of neologisms in the modern Uzbek language, the factors contributing to their formation, and their linguistic characteristics. As a living and constantly evolving system, language is enriched with new lexical units while adapting to technological, social, and cultural changes in society.

The article examines the internal and external sources of neologism formation, their distinctive features in comparison with borrowed words, and the impact of globalization, digital technologies, and mass media on this process. The findings indicate that the enrichment of the Uzbek vocabulary is mainly achieved through internal linguistic mechanisms such as affixation, compounding, and semantic shift, as well as through borrowings from English, Russian, and Turkish languages.

Key words: neologism, borrowed word, affixation, compounding, semantic neologism, globalization, lexical enrichment.

Аннотация: В данной статье анализируются история возникновения неологизмов в современном узбекском языке, факторы их формирования и лингвистические особенности. Язык как живая и постоянно изменяющаяся система обогащается новыми лексическими единицами в процессе адаптации к технологическим, социальным и культурным изменениям общества.

В статье рассматриваются внутренние и внешние источники появления неологизмов, их отличительные особенности по сравнению с заимствованными словами, а также влияние глобализации, цифровых технологий и средств массовой информации на данный процесс. Результаты исследования показывают, что обогащение словарного состава узбекского языка осуществляется преимущественно за счёт внутренних возможностей языка, таких как аффиксация, словосложение и семантический перенос, а также посредством заимствований из английского, русского и турецкого языков.

Ключевые слова: неологизм, заимствованное слово, аффиксация, словосложение, семантический неологизм, глобализация, лексическое обогащение.

KIRISH

Tilning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Ilm-fan, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar, narsa va hodisalar paydo bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, tilga yangi so'z va iboralarning kirib kelishiga sabab bo'ladi. Neologizmlar - yunoncha neos - yangi, logos - so'z so'zlaridan olingan bo'lib, tilda yangi paydo bo'lgan, hali jamiyat a'zolarining ko'p qismiga tanish bo'lmagan



soʻzlar hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida neologizmlarni oʻrganish, ularning yuzaga kelish tarixi va omillarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada hozirgi oʻzbek tilida neologizmlarning paydo boʻlish tarixi, ularning shakllanish omillari, turlari va til lugʻat tarkibini boyitishdagi oʻrni yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - oʻzbek tilidagi neologizmlarning yuzaga kelish manbalari va mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, globallashuv sharoitida tilning leksik tizimidagi oʻzgarishlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi oʻzbek tilida neologizmlarning paydo boʻlishi masalasi tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ushbu mavzu turli jihatlardan ilmiy tadqiqotlarga tortilgan.

Nazariy asoslar va terminologik muammolar

Oʻzbek tilshunosligida neologizmlar nazariyasining shakllanishi XX asrning 40-yillaridan boshlanadi. V.V. Reshetov, A.K. Borovskiy, F. Abdullayev kabi olimlarning ishlari soʻz oʻzlashishi va neologizmlarning leksik qatlamdagi oʻrni masalalariga bagʻishlangan. Keyingi tadqiqotlarda neologizm, okkazonalizm, individual-uslubiy neologizm kabi atamalarning semantik chegaralari aniqlashtirilib, ularning funksional xususiyatlari yoritilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev neologizmlarni boshqa leksik qatlamlardan farqlash boʻyicha muhim ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Globallashuv va oʻzlashmalar muammosi

Ingliz tilshunosi David Crystal “English as a Global Language” asarida ingliz tilining dunyo miqyosida tarqalishi va yangi soʻzlarning paydo boʻlish jarayonlarini tahlil qilgan. Oʻzbek tilida soʻnggi tadqiqotlar globallashuv natijasida ingliz tilidan oʻzlashmalar sonining keskin ortganligini koʻrsatmoqda. Taxminan 70 foizdan ortiq globalizatsiyaga oid yuqori chastotali atamalar rasmiy akademik lugʻatlarda qayd etilmagan boʻlib, bu hodisa “leksikografik kechikish” (lexicographical lag) deb atalmoqda. Oʻzbek tiliga ingliz tilidan oʻzlashayotgan soʻzlar asosan toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashmalar, gibrid shakllar (layk bosmoq) va semantik koʻchishlar kabi taksonomik guruhlarga boʻlinadi ^[1; 2].

Neologizmlarning tasnifi

Oqmirzayeva neologizmlarni shakl neologizmlari, semantik neologizmlar, funksional neologizmlar, ijtimoiy neologizmlar, texnologik neologizmlar va stilistik neologizmlarga ajratib, ularning har biriga misollar keltiradi. Semantik neologizmlar tarkibidagi soʻzlar (masalan, ekran, tarmoq) yangi maʼno kasb etib, zamonaviy kontekstda faol qoʻllanmoqda.

Terminologik adaptatsiya va leksikografik muammolar

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tiliga kirib kelayotgan neologizmlarning terminologik adaptatsiyasida yagona markazlashtirilgan tizimning yoʻqligi “lingvistik interferensiya”ga va ortiqcha dubletlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Yana bir muammo - neologizmlarni rasmiy lugʻatlarda qayd etishning sustligi, bu esa tarjima va leksikografik talqin jarayonlarida qiyinchiliklar tugʻdirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oʻzbek tilidagi neologizmlarning paydo boʻlish tarixi va omillarini oʻrganish uchun tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada ilmiy-nazariy adabiyotlar, oʻzbek tilining izohli lugʻatlari, shuningdek, sohaga oid ilmiy maqolalar va ensiklopedik manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning yasali usullari va oʻzlashma soʻzlardan farqli jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, globallashuv, texnologik taraqqiyot va ommaviy axborot vositalarining til leksikasiga taʼsiri oʻrganildi. Material sifatida oʻzbek tilida soʻnggi yillarda paydo boʻlgan neologizmlar va ularning qoʻllanish misollari tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Neologizmlarning paydo boʻlish manbalari

Oʻzbek tili lugʻati ikki xil manba orqali boyiydi: ichki resurslar va tashqi resurslar.

Ichki resurslar - tilning oʻz ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi soʻzlar yasashdir. Bunga quyidagi usullar kiradi:

- affiksatsiya - mavjud soʻzga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻz yasash;
- kompozitsiya - mavjud soʻzlarga boshqa soʻzlarni qoʻshish orqali yangi soʻz yasash.

Tashqi resurslar - boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali lug'at boyishidir.

O'zbek tiliga asosan tojik tili (hududiy jihatdan yaqinlik), arab tili (VII asrdagi arab istilosi) va rus tili (SSSR davri) orqali ko'plab so'zlar o'zlashgan. Hozirgi davrda esa ingliz tili global ta'sir kuchi sifatida yetakchi o'rinni egallab, texnologiya, biznes, internet va ommaviy madaniyat sohalarida ko'plab neologizmlarni o'zbek tiliga olib kirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

2. Neologizmlarning turlari

Neologizmlar leksik va semantik turlarga bo'linadi.

Leksik neologizmlar - tilda mavjud so'z va morfemalardan foydalanib yoki boshqa tillardan o'zlashtirib yangi so'z yasash orqali hosil qilinadi. Masalan, grafik dizayner (inglizcha graphic designer so'zidan o'zlashgan) - logotiplar, afishalar, veb-saytlar va dizayn ishlari bilan shug'ullanuvchi zamonaviy kasb egasi.

Semantik neologizmlar - tilda mavjud so'z va iboralarning yangi ma'no kasb etishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, sahifa so'zi dastlab kitob varaqlarini anglatgan bo'lsa, hozirda internetdagi veb-sahifalarni ham ifodalaydi. Tarmoq so'zi esa shoxobcha, bo'linma ma'nosidan tashqari, ijtimoiy tarmoq ma'nosida ham keng qo'llanmoqda [2: 3].

3. Neologizmlarning shakllanish omillari

Zamonaviy o'zbek tilida neologizmlarning yuzaga kelishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda.

3.1. Globallashuv va xalqaro aloqalar

Globallashuv jarayoni natijasida tillararo aloqalar kuchayib, o'zbek tiliga ko'plab xalqaro so'zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zlashmalar soni keskin ortgan. Marketing, reyting, tender, startap, investitsiya kabi so'zlar bugungi kunda umumiste'molga aylanib ulgurgan.

3.2. Texnologik taraqqiyot

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'zbek tiliga smartfon, internet, dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt kabi yangi atamalarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Ba'zi hollarda bu so'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilsa, ba'zida o'zbekcha ekvivalentlar yaratilmoqda (masalan, aqlli telefon).

3.3. Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar

Telegram, Instagram, TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar nafaqat yangi muloqot uslublarini, balki internetga oid ko'plab terminologiyani ham kundalik hayotga olib kirdi. "Like bosish", "follow qilish", "post joylash" kabi iboralar, ayniqsa, yoshlar nutqida keng tarqalmoqda.

3.4. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot

Tibbiyot, fizika, biologiya va muhandislik sohalaridagi ilmiy kashfiyotlar yangi terminlarning yaratilishini taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va ommaviy axborot vositalari yangi ilmiy tushunchalar uchun o'zbekcha ekvivalentlarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi [5].

4. Neologizm va o'zlashma so'z munosabati

Neologizm bilan o'zlashma so'zni farqlash muhim ahamiyatga ega. O'zlashma so'zlar – boshqa xalqlar tillaridan o'zbek tiliga kirib kelgan va vaqt o'tishi bilan o'zbek tilining ichki grammatik tuzilishi, imlosi hamda talaffuziga moslashgan so'zlardir. Vaqt o'tishi bilan bunday so'zlar shu darajada me'yorlashadiki, hatto tilshunoslar ularni farqlay olmasligi ham mumkin.

Neologizmning yangiligi esa dastlabki paytlardagina sezilib turadi. Vaqt o'tishi bilan neologizmlar "yangilik" xususiyatini yo'qotib, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, "marketing", "reyting", "tender" so'zlari bir qancha yillar davomida yangi hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda umumiste'mol so'zlariga aylangan.

5. Tilni boyitishning ichki imkoniyatlari

O'zbek tilida neologizmlar yaratishning ichki imkoniyatlari keng. Mavjud so'z va morfemalar asosida affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali yangi so'zlar yasash o'zbek tilining so'z boyligini oshirishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Bu usul tilning o'ziga xosligini saqlab qolishga va ortiqcha o'zlashmalardan qochishga imkon beradi.

6. Globallashuv va tilning kelajagi

Globallashuv sharoitida tillarning o'zaro ta'siri kuchaymoqda. Bir tomondan, bu tilning boyishiga, yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, chet tillaridan, ayniqsa, ingliz tilidan haddan tashqari ko'p o'zlashmalar tilning sofligiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, o'zbek



tilining o'z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanish, yangi atamalar uchun o'zbekcha ekvivalentlar yaratish davlat tilini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

7. Okkazional neologizmlar

Umumiy neologizmlar bilan bir qatorda individual-uslubiy yoki okkazional neologizmlar ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi va odatda keng qo'llanilmaydi. Badiiy asarlarda ular ko'proq uslubiy vazifani bajaradi, ilmiy asarlarda esa atash (nominativ) vazifasini o'taydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi o'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u jamiyatdagi texnologik, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. O'zbek tili lug'at tarkibi ichki (affiksatsiya, kompozitsiya, semantik ko'chish) va tashqi (boshqa tillardan o'zlashma) manbalar hisobiga doimiy ravishda boyib bormoqda.
2. Globallashuv va texnologik taraqqiyot neologizmlarning yuzaga kelishida asosiy omillar sifatida namoyon bo'lib, ingliz tilidan o'zlashmalar sonining keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.
3. Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar neologizmlarning tez tarqalishi va me'yorlashuvida muhim rol o'ynamoqda.
4. Neologizmlar vaqt o'tishi bilan "yangilik" xususiyatini yo'qotib, umumiste'mol so'zlariga aylanadi, bu esa tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatidir.
5. Tilning o'z ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ortiqcha o'zlashmalardan qochish o'zbek tilining sofligi va o'ziga xosligini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zaynabiddinova A.Z. O'zbek tilida neologizmlar va arxaizmlarning leksik-semantik tahlili // In-library.uz.
2. Adilova S. New Words and Neologisms in the Uzbek Language: Factors of Formation // Science Shine. - 2025.
3. Aripova N. A Linguistic Study of Technical Neologisms in Uzbek and English // ACTA NUUZ. - 2025.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Neologizmlar // Qomus.INFO.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Neologizm // Vikilug'at. - 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.